

NATYURMORT KOMPOZITSIYASINI TUZISH VA TASVIRLASHDA BOSQICHLAR ASOSIDA ISHLASHNING AHAMIYATI

Bobur Nabihev

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola talabalarning rangtasvir darslarida natyurmort tuzish va tasvirlashda bosqichlar asosida ishlashning o'ziga hos ahamiyati, bosqichlar asosida ishlash qoidalari haqida boradi.

Kalit so'zlar: fon, rangtasvir, rang, yorug'-soya, yaxlitlik, detallashtirish

ABSTRACT

This article will talk about the importance of working on the basis of stages in drawing up and describing a still life in painting lessons of students, the rules for working on the basis of stages.

Keywords: background, painting, color, bright-shade,integrity, detailing

KIRISH

Natyurmort bir qarashda tasviriy san`atning birmuncha sodda va oson janridek tuyuladi. Rangtasvir darslari davomida o'qituvchi tomonidan tayyor natyurmort kompozitsiyasini tuzib, talabalarga ishlash tavsiya qilinganida bu holat yanada ko`zga yaqqol tashlanadi. Qolaversa, talabalar auditoriyada qaysi joy to`g'ri kelsa, o'sha yerda o`tirib ishlab ketaveradilar. Hattoki, natyurmortning mavzusi, undagi detallarni joylashuvi va kompozitsion yechimi haqida aksariyat talabalar o`ylab ham ko`rishmaydi. Natijada esa darsdan ko`zlangan maqsadga ham erishib bo`lmaydi, darsning samaradorligi esa past darajada bo`ladi.

Shaklni to`g'ri tasvirlash uchun o'quvchi, avvalo, uning o'ziga xos tomonlarini aniq tasavvur etish va ko'rishni o'rganishi kerak. Yosh va boshlovchi rassom uchun bu oson ish emas va doimiy ravishda nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni talab qiladi. Mashhur ijodkorlarning fikriga ko'ra, agarda, rassom bir kun rasm chizishdan to'xtasa, u ikki kun orqaga ketadi. Shuning uchun yosh rassom naturaga qarab, jismlaming haqqoniy rasmini chizishni bir kun ham to'xtatmasligi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shuning uchun ham rangtasvir fani o'qituvchisi yangi mavzuni talabalarga og'zaki tarzda tushuntirib, ular ishtirokida

natyurmort kompozitsiyasini tuzishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agarda natyurmort kompozitsiyasini 3-4 va undan ortiq buyumlar ishtirokida tasvirlash rejalashtirilgan bo`lsa, o`qituvchi 6 - 7 buyumni talabalarga taklif qilib, ularni ichida mavzuga mos keladiganlarini alohida ajratib olishlari kerakligini ta`kidlasa, talabalar faolligi ortadi. Misol uchun, sabzavot - mevalardan tashkil topgan natyurmort kompozitsiyasi tasvirini ishslash bo`lsa, o`qituvchi sabzavot - mevalar orasiga poliz ekinlari va shu kabi boshqa, mavzuga mos kelmaydiganlarini ham qo`shib qo`yishi talabalarni fikrlashiga, taxlil qilishiga va ularni orasidan kerakligini tanlab olishiga olib keladi. P.P. Konchalovskiy rangtasvirda qalamtasvirning mohiyatini ko`rib, shunday yozgan: "Rangtasvirning haqiqiy usuli — bu shaklni mutlaqo aniq yetkazib berish yo`li bilan beriladigan bo`yoq surtmadir"

O`qituvchi talabalarga natyurmort kompozitsiyasi uchun zarur bo`lgan buyumlarni tanlayotganlarida ularning rangi, shakliga ham e`tibor berishlarini kerakligini alohida ta`kidlashi lozim. Ayniqsa, fon vazifasini bajaruvchi matolarning rangi ham mavzuga mos kelishi zarurligini bilgan talabalar bu vazifaga yanada jiddiy qaray boshlaydilar. Kerakli detallarni tanlab olishning o`zi etarli bo`lmaydi, ularni tasvir tekisligiga uyg'un tarzda joylashtirish masalasi ham talabandan tajriba talab qiladi. Buyumlarning kompozitsiyada o`zaro ichki bog'lanishi bilan bir qatorda ularni tashqi holati, ya`ni yonma-yon yoki oldinma-ketin turishi, shakli, hajmi, rangi masalasi eng asosiy ahamiyat kasb etishini talabalar yaxshi tushunib etishlari zarur. Bu o`z-o`zidan talabalar faolligini va darsdan ko`zlangan maqsadga erishish imkoniyatini oshiradi. Bir necha marotaba natyurmort kompozitsiyasini o`qituvchi ishtirokida tuzgan talabalar mustaqil natyurmort tuzib, tasvirlash malakasiga ega bo`ladilar.

Natyurmort kompozitsiyasi tuzishning o`zi yetarli bo`lmasdan, uni tasvirlash talabandan katta mahorat talab qiladi. Shuning uchun ham natyurmort tasvirini ishslash bosqichlarini ko`rib chiqamiz. Rangtasvir bo`yicha darslik va o`quv qo`llanmalarda natyurmort kompozitsiyasini ishslash bosqichlari bo`yicha turli xil tavsiyalar berilgan.

Ijodiy natyurmort tuzish uchun hayotiy voqe'alarga tayanish kerak. Bunday holda chiroyli va qiziqarli kompozitsiya tuzishda narsalar guruhini kundalik turm ushda qollaniladigan narsa va buyumlardan olish maqsadga muvofiq. Rangtasvirning asosiy vazifasi shundan iboratki, buyum va narsalarning hajmliligi, materiallik va rangdorlik sifatlarini natura qo'yilmasidek aniq tasvirlash hamda qo'yilm aniq yaxlit tusda yakunlash maqsadga muvofiqli.

Birinchi bosqich - natyurmort kompozitsiyasini tuzish, qog'oz yuzasiga to`g'ri joylashtirish va konstruktiv tuzilishini topish Faqatgina ushbu bosqich grafit qalamida bajariladi, qolgan

barcha bosqichlar bevosita akvarel bo`yog`i yordamida amalga oshiriladi.

Odatda talabalar natyurmort kompozitsiyasining chiziqli tasvirini chizishda har bir detalni alohida-alohida tasvirini ishlab, katta hatolikka yo`l qo`yadilar. Avvalo, natyurmortdagi detallar uchun umumiyligini bo`lgan eng katta o`lchamlarini, ya`ni bo`yi va enini aniqlab olishlari zarur. Shundan keyingina har bir buyumning konstruktiv tuzilishini bir vaqtning o`zida topishlari talab qilinadi. Natyurmort tekisligi, buyumlarda yorug`-soya nisbatlarini ham yengil chiziqlar yordamida belgilab chiqiladi. Agarda talaba birinchi bosqichda qo`pol hato va kamchiliklikka yo`l qo`yadigan bo`lsa, keyingi bosqichlarda harchand harakat qilmasin uni to`g`rilashning umuman iloji bo`lmaydi.

Ikkinci bosqich – natyurmort kompozitsiyasidagi buyumlarning umumiyligini berish. Natyurmort kompozitsiyasining chiziqli - konstruktiv tuzilishi to`g`ri topilganidan keyin, unga umumiyligini rang berish bosqichiga o`tiladi. Rang berishdan oldin barcha jismlar, ularning konstruktiv tuzilishi to`g`ri topilganligiga ishonch hosil qilish uchun yana bir karra tekshirib chiqiladi. Shundan keyin rang bilan ishlashga o`tgan talaba akvarel bo`yog`ida ishlash qonuniyatiga qat`iy amal qilgan holda ochdan-to`qqa, umumiyyadan-xususiyga o`tishi kerak bo`ladi. Ayrim talabalar faqat buyumlarning rangini berib, orqa fonga esa rang bermaydilar. Bu esa keyinchalik yorug`-soya nisbatlarini topishda muammolar kelib chiqishiga olib keladi. Qog`oz yuzasida qolib ketgan ortiqcha oq yuzalar yaxlitlikni buzilishiga sabab bo`ladi.

Uchinchi bosqich –natyurmort kompozitsiyasidagi buyumlarning umumiyligini yorug`-soya nisbatlarini topish. Ikkinci bosqichda berilgan ranglar umumiyligini harakterga ega bo`lgan edi, bu bosqichda esa buyumlarning umumiyligini yorug`-soya nisbatlarini topish talab qilinadi. Yorug`-soya nisbatlarini topish ham avvalgi bosqichda bo`lgani singari yengil rang berish orqali amalga oshiriladi. Talabalar bir buyumga ortiqcha ishlov berib, boshqa birini e`tiborsiz qolib ketishidan qochishlari zarur. Bunda ham hamma buyumlarning, mato va tekislik yuzasining umumiyligini soya qismlari topiladi, yorug` yuzalarga ishlov berilmaydi, ular birinchi bosqichdagi holatida qolishi kerak.

To`rtinchi bosqich – detallashtirish. Ushbu bosqichda natyurmort kompozitsiyasidagi barcha buyumlarning har biriga alohida – alohida ishlov beriladi. Barcha buyumlardagi hajm, shakl yorug` – soya asosida to`liq detallashtirib chiqiladi. Detallashtirish jarayonida ayrim talabalar tomonidan ranglarning akvarelga xos bo`lgan shaffofligini yo`qotib, kir va xira ranglarni hosil qilganliklari ham kuzatiladi. Bunday kamchiliklarni oldini olish maqsadida haddan tashqari ko`p ranglarni o`zaro aralashtirishdan qochish lozim. Buyumlarning yorug`ligi, haqiqiy va tushuvchi soyalari, refleksi-

topiladi. Aynan shu bosqichda materiallilik vazifasini topish ham amalga oshiriladi. Boshqa bosqichlarga nisbatan qaraganda talabaning bor mahorati, egallagan ko`nima va malakasi aynan shu bosqichda namoyon bo`ladi. Ushbu bosqich talabadan uzoqroq vaqtini, jiddiy izlanishni talab qiladi. Natyurmortdagi ma`lum bir buyumga to`liq ishlov burish jarayonida ham boshqa bir buyumning umumiyligi bilan taqqoslab borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Detallashtirish ekan, deb ba`zi bir buyumning rangini ortiqcha to`qlashtirish yaramaydi. Ortiqcha ishlov berilgan buyum umumiyligi koloritni, yaxlitlikni buzilishiga olib keladi.

Beshinchi bosqich – yaxlitlash, umumlashtirish, yakunlash. Avval boshida umumiylikka amal qilgan bo`lsak, keyin umumiylidan – bo`laklarga, ya`ni har jismning o`ziga alohida ishlov berishga o`tgan edik. Endigi vazifa bo`laklardan – umumiylikka o`tish bilan yakun topadi. Umumiyligi koloritdan ajralib qolgan rang nomuvofiq begona bo`lib ko`rinadi va tasvirning yahlitliliga putur yetkazishi mumkin. Bunda natyurmort kompozitsiyasidagi har bir buyum o`z o`rnida turishiga e`tibor beramiz. Ayniqsa, yorug'likni hosil qilish jarayonida barcha jismlarning yorug'lik tushib turgan yuzasiga rang bermay, oq qog'ozning o`zini qoldirib hatoga yo`l qo`yishadi. Natijada natyurmortdagi jismlarning yorug'ligi biri-biriga halaqit qiladi. Kompozitsiyadagi yaxlitlik, buyumlardagi hajmlilik, umumiylilik yo`qoladi. Aynan ushbu bosqichda yo`l qo`yilgan hato va kamchiliklarni qayta tekshirib chiqish, bartaraf qilish talab qilinadi.

XULOSA

Shu o`rinda talaba uzoq vaqt bir joyda o`tirib ishlashi ham ayrim hato va kamchiliklarni hosil bo`lishiga olib kelishini alohida ta`kidlash lozim. Ma`lum vaqtdan keyin talaba o`rnidan turib ishlayotgan tasvirni biroz orqaroqdan kuzatishi ushbu holatlarni oldini oladi. Biz yuqorida sanab o`tgan bosqichlarning har birida ko`zlagan maqsadga erishilganligini tekshirish maqsadida ishini chetdan nazorat qilish ham foydadan holi emas. Oxirida esa talaba o`zi ishlagan tasvirni natyurmort bilan yonma-yon qo`yib solishtirishi kerak bo`ladi. Dars yakunida fan o`qituvchisi talabalar tomonidan yo`l qo`yilgan umumiyligi hato va kamchiliklarni taxlil qilib, mavzuga oid mustaqil ta`lim uchun vazifalarni beradi.

REFERENCES

1. B.Boymetov, “Qalamtasvir” Pedagogika yo ‘nalishidagi kasb-hunar kollejlari uchun o ‘quv qo ‘llanma Toshkent - «ILM ZIYO» – 2007 7-b.
2. П.П. Кончаловский. Мысли о художественном творчестве. М., 1964, 27-б.

3. S.Abdirassilov, N.Tolipov, N.Oripova “Rangtasvir” o ‘quv q o’llanma, TOSHKENT - « O’ZBEKISTON» - 2006, 35-b.
4. Boltaboyev.A.X.(2021) “IN PAINTING NATYURMORT IN’S WORKING METHODS AND PECULIARITIES”.*The american journal of applied sciences*,03 (01). 123-127
5. B.Boymetov,O’.Nurtayev “Tasviriy san’at texnologiyasi va nusxa ko’chirish” oliv o’quv yurtlari uchun o’quv qollanma, “TOSHKENT IQTISOD-MOLIYA” 28-b.